LINGVISTIK EKSPERTIZADA JINOIY NUTQNI LINGVISTIK JIHATDAN KOMPLEKS O‘RGANISH MASALALARI

https://doi.org/10.70728/phil.v05.i05.063

Dedaxanova Muazzam Altmishbayevna
ORCID: 0000-0001-7465-1058
filologmuazzam@gmail.com
Shanghai International Studies University, Xitoy

Annotatsiya: Maqolada jinoyat izlarini aniqlashda til xususiyatlarining barchasi lingvistik ekspertiza uchun dolzarb ahamiyatga ega ekanligi xususida so‘z boradi. Xususan, jinoiy nutqda uchraydigan noadabiy unsurlar va individuallikni yuzaga keltiruvchi xatolar alohida tahlil obyekti sifatida ko‘rib chiqiladi. Shunga ko‘ra til birliklarining barcha darajadagi xatolari jinoyatni aniqlashda muhim identifikatsion belgi ekanligi ta’kidlanadi va jinoyatchilar nutqining lingvistik xususiyatlarini kompleks tahlil qilish taklif qilinadi.

Kalit so‘zlar: jinoiy nutq, lingvistik ekspertiza, noadabiy unsurlar, fonetika, orfoepiya, grammatika, orfografiya, punktuatsion xato, stilistika

ISSUES OF COMPREHENSIVE LINGUISTIC ANALYSIS OF CRIMINALS’ SPEECH IN FORENSIC LINGUISTIC EXAMINATION

Dedakhanova Muazzam Altmishbayevna
Shanghai International Studies University, China

Abstract: The article discusses the significance of linguistic features in identifying traces of crime within the framework of forensic linguistic examination. In particular, non-standard linguistic elements and errors reflecting the individual characteristics of criminals’ speech are considered as independent objects of analysis. It is emphasized that errors occurring at all levels of language serve as important identifying markers in crime detection. In this regard, a comprehensive analysis of the linguistic features of criminals’ speech is proposed.

Keywords: criminal speech, forensic linguistic examination, non-standard linguistic elements, phonetics, orthoepy, grammar, orthography, punctuation error, stylistics

KIRISH

O‘zbek tilshunosligida “fundamental, amaliy va innovatsion ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish, mavjud ilmiy maktablarni saqlab qolish va yangilarini yaratish, ularning kadrlari salohiyatini mustahkamlash, bunda iqtidorli yoshlarning ilm-fanga keng jalb etilishi”ga [5] alohida e’tibor qaratilmoqda. Shunga ko‘ra jinoyat olami nutqiga xos lingvistik xususiyatlarni tahlil qilish asosida lingvistik ekspertiza muammolarini hal etish masalasi dolzarb bo‘lib, mazkur maqolaning mohiyatini ifodalaydi. Bu esa bugungi fan taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Jinoyatchilar nutqining lingvistik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha xorijiy tadqiqotlarda bir qator muhim natijalarga erishilgan. Xususan, jinoiy nutq tahlilida noadabiy unsurlarni yuzaga keltiruvchi xatolar muhim ahamiyatga ega. Ma’lumki, ularni texnik xato, grammatik xato, leksik xato, sintaktik xato, imloviy xato, uslubiy xato, punktuatsion xato [4, b. 2] kabi kategoriyalarga ajratish mumkin. S.N.Seitlin esa “Nutqiy xatolar va ularning oldini olish” mavzusidagi tadqiqotida nutqiy-me’yoriy buzilishlarni quyidagicha talqin etadi:

- so‘z shakllanishidagi xatolar. So‘zlashuv jarayonida tasodifiy holda noadabiy shakllangan so‘zlarni qo‘llash;
- morfologik xatolar. So‘z tarkibining tabiiy bo‘lmagan holda shakllanishi;
- sintaktik xatolar. So‘z birikmalarini, oddiy va murakkab jumlalarni noto‘g‘ri tuzish;
- leksik xatolar. Noadabiy leksik unsurlar, kanselyarizm, parazit so‘zlarni qo‘llash;
- frazeologik xatolar. Frazeologik birliklarni noadabiy me’yorda qo‘llash;
- stilistik xatolar. So‘zlashuv uslubiga rioya qilmaslikdan iborat [6, b. 21].

Ma’lumki, dialektologiya fanining areal lingvistika sohasi leksik, fonetik, grammatik, sintaktik birliklarning hududiy xoslanishi masala bilan shug‘ullanadi. Shu asosida bunday xatolar maxsus tadqiq etiladi va u shaxsning individul xususiyatini aniqlashda dolzarb xususiyatga ega. Jinoyat olami vakillari nutqini lingvistik ekspertizadan o‘tkazishda til birliklarining bu jihatdan tahlili muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, matn avtorizatsiyasini aniqlashda ham nutqning bunday areal chegaralanishini tahlil qilishning xizmati katta.

Professor Aynsvorz mualliflikni aniqlashda forensik stilistika va forensik stilometriyaning ro‘lini muhokama qilar ekan, ikki yondashuvni (sifatli stilistika va miqdoriy stilometriya) qiyoslab, idiolek (shaxsning o‘ziga xos tili) tushunchasini aniqladi. Natijada esa hech qanday metodning mukammal emasligini, ularning ishonchliligi yetarlicha ma’lumot mavjudligiga bog‘liqligini [1] ta’kidlaydi. Shunga ko‘ra, jinoyatchini aniqlashda ham til xususiyatlaridan faqat bittasiga yoki birgina

metodga tayanib, haqiqatga oydinlik kiritib bo‘lmaydi. Idiolek ("shaxsiy nutq uslubi", "individual til") tushunchasiga tayanib, jinoiy nutqni barcha lingvistik xususiyatlarini umumiy tahlil qilish orqali xulosa chiqarish zarur. Shuni inobatga olgan holda maqolada lingvistik kuzatish, tavsif va tizimli tahlil kabi usullardan kompleks foydalanildi.

NATIJALAR

Yuridik soha mutaxassislari jinoyatni aniqlash uchun yillar davomida qo‘lyozmalardan daliliy ashyo sifatida foydalanib kelishgan va unda yozuvning shakli, ya’ni katta-kichikligi, uzun-qisqaligi, qanday bosim asosida yozilganligi va boshqa shu ko‘rinishdagi xususiyatlariga e’tibor qaratishgan. Unga qo‘shimcha holda, lingvistik ekspertizada McMenamin *leksik, sintaktik va semantik* jihatlarni o‘z ichiga olgan yaxlit tizimni, haqli ravishda, taklif qildi [3]. U 70 dan ortiq mualliflik ishlarini tahlil qilib, ushbu sohaga ilmiy asos solgan olimlardan biridir. McMenamin fikriga yana-da oydinlik kiritib, aytish mumkinki, jinoiy nutqqa xos til xususiyatlarining barchasi lingvistik ekspertiza uchun dolzarb ahamiyatga ega:



1-rasm. Nutqning til xususiyatlari

Jinoyat izlarini aniqlashda leksik (so‘zlar), frazeologik (iboralar), semantik (ma’nolar), fonetik (tovush va urg‘u), orfoepik (talaffuz me’yori), morfemika va so‘z yasalishini ham inobatga olgan holda grammatik (so‘z shakllari, birikma va gaplar - morfologik va sintaktik), stilistik (uslubiy); yozuvda esa orfografik (imlo) va punktuatsion (tinish belgilari) kabi til xusiyatlarining barchasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Xususan, sud-mualliflik tahlilida lingvistikaga qaratilgan barcha darajadagi sintaktik, semantik, leksikologik va nutq, shuningdek, imlo, punktuatsion, stilistik jihatlar tekshiriladi. Aybdorning ayrim so‘zlarni doimiy xato (yoki to‘g‘ri) yozishi, qisqartmalardan qay tarzda foydalanishi, yozma nutqida ham og‘zaki nutq unsurlari aks etgan holda imlo qoidasiga umuman amal qilmaslik kabi orfografik belgilar yozishmalardagi muhim jihat hisoblanadi. Og‘zaki nutqda esa argotik birliklar, rus tilidan o‘zlashmagan varvarizmlar, qo‘pol vulgarizmlar, dialektizmlar, parazit so‘zlar, shuningdek, leksik va logik urg‘ularni qo‘llash; ikki undoshning bir bo‘g‘inda yonma-yon (qator) kelishi, so‘zda unlilarning qo‘sh va qator kelishi kabi boshqa tilga

xos lug‘aviy birliklar talaffuzidagi tovush ortish, almashish hodisalari alohida ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, metateza, assimilyatsiya, dissimilyatsiya kabi qator fonetik hodisalar; tovushlar talaffuzini o‘ziga xos shaxsiylashtirilgan fonetik unsurlar, talaffuz me’yorining buzilishi bo‘yicha orfoepik xususiyatlar bu borada muhim ahamiyatga ega. Jinoyatchilar nutqining grammatik xususiyatlari ham o‘ziga xos bo‘lib, Hankok va boshqalar bu masalaga e’tibor qaratishgan. Ularning ta’kidlashicha, psixopatik jinoyatchilar nutqida sabab-oqibat bog‘lovchilari va o‘tgan zamon fe’llari ustunlik qiladi. Shuningdek, psixopatlar hozirgi zamon fe’llaridan kamroq foydalanishgan, bu ularning voqeadan psixologik jihatdan ko‘proq uzoqlashganini ko‘rsatadi [2, b. 102-114]. Rasmiy so‘zlar bilan boshqaruvni qo‘lga olish yoki ishontirish qobilyati bilan badiiy jumlalar qurish: fikrni bo‘rttirish (mubolag‘a), o‘xshatish (tashbeh), zidlash (tazod, antiteza) asosida tasvirlash, ijobiydan ko‘ra salbiy bo‘yoqdor so‘z lardan unumli foydalanish singari stilistik jihatlar ham jinoyat izlarini aniqlashda dolzarb hisoblanadi.

MUHOKAMA

Tergov jarayonida fikrni ifodalash, gaplarning tuzilishi, murakkab va chalkash tuzilmalardan yoki grammatik shakllardan noto‘g‘ri foydalanish jinoiy tafakkurning o‘ziga xos belgilari hisoblanadi. Tilni yetarli darajada bilmaslik, savodsizlik hamda til xatolari ta’lim va aqlning past darajasini ko‘rsatishi mumkin, bu jinoiy fikrlashni shakllantirishga yordam beradi. Albatta, bunday jarayonlarda, tuhmatda qolgan, nohaq ayblanayotgan aybsiz aybdorlar ham o‘z fikrini ifodalashga qiynaladi. Biroq ular jinoyatchilardek, xotirjam o‘zini qo‘lga olish, bitta so‘roqqa har gal har xil javob berish, mavzudan chalg‘itishga harakat qilish xususiyatiga ega emasligi bilan ajralib turadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, jinoyatchini aniqlashda faqat bitta metod yoki birgina til xususiyatiga asoslanib, masalani hal qilib bo‘lmaydi. Idiolek tushunchasiga asoslanib, nutqqa xos lingvistik jihatlarning barcha o‘ziga xos kombinatsiyasini tahlil qilish orqaligina ko‘zlangan natijaga erishish mumkin. Bu kombinatsiya (muallif izi) shaxsning o‘ziga xos “til barmoq izi” hisoblanadi. Qolaversa, lingvistik ekspertiza nafaqat lingvistika bilan, balki uning turli fan sohalari integratsiyasi natijasida yuzaga kelgan psixolingvistika, etnolingvistika, sotsiolingvistika, lingvokognitologiya, lingvopragmatika, lingvokulturologiya kabi yangi yo‘nalishlari bilan bevosita va bilvosita bog‘liq. Shu jihatdan, bugungi kunda, dunyo miqyosida, lingvistik ekspertizaning keng qamrovdagi umumiy tahlili asosida yana-da samaraliroq natijalarga erishilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ainsworth J. (2017). An Introduction to Forensic Linguistic Approaches to Author Attribution. (Conference lecture). Shanghai Jiao Tong University, Center for Martin Applied Linguistics.

2. Hancock J.T., Woodworth M., Porter S. (2013). Hungry Like the Wolf: A Word-Pattern Analysis of the Language of Psychopaths. Legal and Criminological Psychology. Volume: 18.

3. McMenamin Gerald R. (2002). Forensic Linguistics: Advances in Forensic Stylistics. Boca Raton: CRC Press.

4. Milom V.L. (2019). Native Language Analysis in Forensic Linguistic Contexts: A Pilot Study Using Four Languages.

5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси тўғрисида”ги ПФ-5847-сон.

6. Цейтлин С.Н. (1982). Речевые ошибки и их предупреждение: Пособие для учителей. - Москва: Просвещение.